

ANTITEZA KONTRAST HOSIL QILUVCHI STILISTIK VOSITASINING SEMANTIK TAHLILI (O'ZBEK VA FRANSUZ TILLARI MISOLIDA)

Eshonova Dilnoza Ma'ruf qizi

O'zbekiston milliy universiteti
Lingvistika 2-bosqich magistranti.

E-mail: dilnoza_0770@bk.ru

Ilmiy rahbar: f.f.n., dots. **O'rmonova N.M.**

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek va fransuz tillaridagi badiiy asarlarda, xalq maqollarida uchraydigan antiteza kontrast hosil qiluvchi stilistik vositasining semantik jihatdan namoyon bo'lishi tahlil qilingan. Shuningdek antiteza tarkibidagi ikki qarama-qarshilikning parallel qolatda kelishi misollar orqali ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: kontrast, kontrast guruhi, antiteza, tazod, parallelizm.

Аннотация: В данной статье анализируется семантическое проявление стилистического средства контрастирования антитезы, встречающейся в художественных произведениях узбекского и французского языков, народных пословицах. Также на примерах показано, что два противоречия в антитезе находятся в параллельном состоянии.

Ключевые слова: контраст, контрастная группа, антитеза, tazod, параллелизм.

Annotatsiya: This article analyzes the semantic manifestation of the stylistic means of contrasting the antithesis found in the works of art of the Uzbek and French languages, folk proverbs. It is also shown by examples that two contradictions in the antithesis are in a parallel state.

Keywords: contrast, contrast group, antithesis, contrast, parallelism.

Dunyo bo'yicha ko'plab o'tkazilgan lingvistik tadqiqotlar natijasida, tilshunoslar kontrast tushunchasi haqida turli fikrlarni g'oyalarni ilgari surib kelmoqda. Kontrast – bu tilda bayon qilingan fikr, go'ya, gaplar tarkibidagi tovushlarni, so'zlarni yoki grammatik elementlarning ma'nosini mantiqan tushunish va anglashga yordam beradigan tushunchadir.

Bir qator lingvistlarning amalga oshirgan tadqiqotlari natijasida kontrast tushunchasi haqidagi fikrlar turli mintaqalarda sezilarli darajada farq qilishi mumkin ekan. Ba'zi tilshunoslarning fikriga ko'ra, kontrast barcha tillar tarkibida ajralmas xususiyatga ega va o'zaro aloqa uchun zarurdir. Ular agar tilda kontrast mavjud bo'lmasa bu tilni o'rganish va tushunish juda qiyin bo'ladi deb hisoblaydilar. Ba'zi tillarda bir tovushning turli talaffuziga ko'ra so'zlarning ma'nosi farqlanishi mumkin, bu esa tilning murakkablik darajasini oshiradi. Bunga misol qilib xitoy tilining turli dialektlarini ko'rsatish mumkin. Aksariyat lingvistlar esa, mukammal funktsional va tushunarli bo'lgan kontrastsiz tillar mavjudligini ta'kidlaydilar. Ba'zi tillarda so'zlarning ma'nosini intonatsiya yoki kontekstda ko'rsatish uchun boshqa vositalardan foydalaniladi. Shuningdek, ular kontrast madaniy va lingvistik me'yorlarga qarab sub'ektiv va nisbiy tushuncha bo'lishi mumkinligini ta'kidlaydilar⁶¹.

⁶¹ https://t.me/ChatGPT_General_Bot

Ilmiy adabiyotlarda kontrast tarkibiga kiruvchi bir qancha stilistik vositalar kontrast hosil qiluvchi vosita ekanligi ta'kidlanadi. Shu jumladan, N.A.Postolovskaya antonimiya, paradoks, antiteza, oksimoron stilistik figuralarni “kontrast guruhi” deb ta'kidlaydi⁶². Biz antiteza kontrast hosil qiluvchi stilistik vositasini o'zbek va fransuz tillari doirasida ilmiy jihatdan o'rganib, bir qancha misollar tahlili orqali yoritishga harakat qildik.

Antiteza – yunoncha “antithesis” so'zidan olingan bo'lib “qarshilantirish” “qarama-qarshi qo'yish”, “zidlash” ma'nosini anglatadi. Bu vosita obraz zamiridagi narsa, hodisa, tushunchalarni keskin qarshilantirishga asoslanadi⁶³. Bizning fikrimizga ko'ra o'zbek tilida qo'llaniladigan tazod antitezaga tog'ri keladi. Faqat, antiteza yunonchadan, tazod esa arabchadan olingan. Ammo ba'zi manbalarda ularning farqli jihatlari bor deb talqin qilinadi. Antiteza keltirilgan nutq yoki bayonotdagi ikki fikr, g'oya yoki tushunchalarning o'zaro qarama-qarshilik munosabatini anglatadi. Bunday munosabatga antonimlar, o'zaro zid bo'lgan terminlar yoki ikki narsa, g'oyani qarshilantirish orqali erishish mumkin. Antiteza vositasi orqali nutqdagi fikr yoki g'oyaning, hamda tasvirlanayotgan ob'yekt haqidagi ma'lumotning kognitiv holati yorqinroq bo'ladi va ta'sir qilish darajasi ortadi. Antitezani fransuz va o'zbek tillaridagi ko'plab maqollarda, she'riyatda, ma'lum bir yozma yoki og'zaki bayon qilingan nutqda uchratishimiz mumkin. Umuman olganda qarama-qarshilikning parallel joylashuvi antitezani ifodalaydi. Masalan Hamza Hakimzoda Niyoziyning “Dardiga darmon istamas” she'rida antitezaning juda aniq namoyon bo'lganini ko'rishimiz mumkin:

“O'zga millat uchsa hikmat topib so'yi samo,
Bizni ellar loaqal yer uzra davron istamas.
Uxlama ko'p, o'zbek e'li, asli taraqqiy vaqtida.”

Keltirilgan misralarda *so'yi samo* va *yer uzra* kabi so'zlar o'zaro zid holatda bo'lib, parallel qarama-qarshilik keltirib chiqargan hamda stilistik va semantik jihatdan antiteza hosil bo'lgan.

Fransuz yozuvchisi va lingvisti J.L.Shiflening fikricha antiteza ikki qarama-qarshi ma'nodagi so'zlarni yoki gaplarni ifodalaydi. U kontrast xosil qilib, ikki o'zaro zid bo'lgan fikrni ta'kidlaydi. Bu usul juda foydali bo'lib, ayniqsa badiiy adabiyotda keng qo'llaniladi. Masalan: “*Selon que vous serez puissant ou misérable, les jugements de cour vous rendront blanc ou noir*” (*La Fontaine*)⁶⁴. Ya'ni “Sizning qudratliligingiz yoki qashshoqligingizga qarab sud a'zolari sizni oqlaydi yoki qoralaydi”. Keltirilgan misoldan ko'rinadiki “puissant - misérable”, “blanc - noir” kabi so'zlarning o'zaro zidligi fikr tarkibidagi g'oyalarni kuchli tarzda qarshilantirishi natijasida antiteza – kontrast hosil qiluvchi asosiy turlardan biri ekanligi yaqqol namoyon bo'lgan.

Ikki o'zaro qarama-qarshi fikrning parallel joylashuvini antiteza ifodalasa⁶⁵, bunday parallellikni har ikki tilning xalq maqollarida ko'plab kuzatish mumkin. Bunday parallellik “parallelizm” termini bilan bog'liqdir. “Parallelizm” – yunoncha “paralellos” – yonma-yon turuvchi yoki boruvchi degan ma'nolarni anglatadi. Xalq og'zaki ijodida juda keng qo'llangan tasvir usuli, muayyan o'xshashlikka ega narsa-xodisalarni parallel tarzda tasvirlash usulidir⁶⁶. Biz o'ylaymizki, nafaqat o'xshash balki qarama-qarshi narsa-hodisalarning yonma-yon joylashuvi ham parallel holatda bo'ladi. Quyida o'zbek va fransuz tilida keltirilgan bir qancha misollarni tahlil qilib ko'ramiz. “*Ko'pning ishi yitmas, ozning ishi bitmas*”; “*Eshakning go'shti harom, mehnati -*

⁶² Пернова.Г.Б. Отличие оксюморона от антитезы в узбекском языке. – Ч.: 2017. –С.104.

⁶³ Куронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик лугати. – Т.: 2010. – С. 32

⁶⁴ <https://www.lefigaro.fr/langue-francaise/figures-de-style-qu-est-ce-qu-une-antithese-20210824>

⁶⁵ Бочина Т.Г. Контраст как лингвокогнитивный принцип русской пословицы. – К.: 2003. – С. 231.

⁶⁶ Куронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик лугати. – Т.:2010. – Б. 214.

halol”; “Yoshning qarisi bo’lguncha, qarining yoshi bo’l”; “Bir ochlikning bir to’qligi bor” v.h.k. Keltirilgan o’zbek xalq maqollarining har birida ikki o’zaro zid so’zlarning parallel holatda joylashib asosan ko’p-oz, harom-halol, yosh-qari, ochlik-to’qlik kabi antonim so’zlardan tashkil topganini kuzatish mumkin.

Fransuz xalq maqollarini tahlil qilib ko’ramiz: “On ne fait la guerre que pour faire enfin la paix”; “Il y a beaucoup de lois et peu de justice”; “Il faut laisser suer ceux qui ont chaud et trembler ceux qui ont froid”; “Il faut bien penser à la mort. Aujourd’hui vif, demain mort” etc. Ushbu misollardan yaqqol ko’rinadiki la guerre-la paix (urush-tinchlik), beaucoup-peu (ko’p-oz), chaud-froid (issiq-sovuq), vif-mort (tirik-o’lik) kabi so’zlarning semantik zidligi ham g’oya, ham mazmun jihatdan antiteza hosil qilgan.

Shunday qilib, tilda mavjud bo’lgan standart ya’ni bir qolipga kirgan o’zaro antonimik, berilgan og’zaki yoki yozma nutqdagi ikki fikr-g’oyaning semantik jihatdan o’zaro zidligi, narsa-xodisalarning bir-biriga nisbatan bir vaqtda zidlantirilishi antiteza stilistik vositasini yuzaga keltiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yhati:

1. Пернова.Г.Б. Отличие оксюморона от антитезы в узбекском языке. – Ч.: 2017. – С.104.
2. Бочина Т.Г. Контраст как лингвокогнитивный принцип русской пословицы. – К.: 2003. – С. 231.
3. Sadullaeva N., Sapaeva D. Analysis of Eponyms in the Terminology of Dermatovenerology //Annals of the Romanian Society for Cell Biology. – 2021. – С. 452-459.
4. Sadullaeva, N., & Bakhtiyorova, M. (2021). Reflection of Onomastic Principles in Naming. Annals of the Romanian Society for Cell Biology, 3001-3007.
5. Sadullaeva N., Burieva U. The Peculiarities of Incomplete Sentences in Modern English //Annals of the Romanian Society for Cell Biology. – 2021. – С. 3008-3020.
6. Sadullaeva S., Arustamyan Y., Sadullaeva N. Shifting the assessment paradigm from knowledge to skills: Implementation of new appraisal procedures in EFL classes in Uzbekistan //International Journal of Innovative Technology and Exploring Engineering. – 2019. – Т. 9. – №. 1. – С. 4943-4952.
7. Arustamyan, Y., Siddikova, Y., Sadullaeva, N., Solieva, M., & Khasanova, N. (2020). Assessment of Educational Process and its Organization. International Journal of Psychosocial Rehabilitation, 24(S1), 573-578.
8. Nilufar S., Elvira A. GENDER SPECIFICITY OF PEDAGOGICAL DISCOURSE //INTERNATIONAL SCIENTIFIC CONFERENCES WITH HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS. – 2023. – Т. 3. – №. 08.05. – С. 187-190.
9. Gulnoza K., Sadullaeva N. LINGUISTIC FEATURES OF GLUTTONIC DISCOURSE.
10. Djafarova, Dildora, Yaxshiboyeva Nodira, and Abdullayeva Zulfiya. "Socio-Cultural Memory And Its Reflection In French Phraseology." Journal of Positive School Psychology (2022): 2883-2889.
11. Yaxshiboyeva, Nodira. "Reconstruction of coloristic expressions in erkin azam's" noise" and" pakana's love"." Конференции. 2021.
12. Ilhomovna, Djafarova Dildora, and Bobokalonov Odilshoh Ostonovich. "Interaction of Language Games in the Articulation of “Historical Memory” Within French and Uzbek

- Phraseology." American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education (2993-2769) 2.1 (2024): 348-354.
13. Ilhomovna, Djafarova Dildora, Bobokalonov Odilshoh Ostonovich, and J. A. Yakubov. "Archaic Phraseological Units as Windows into "Historical Memory" in French and Uzbek Linguistic Traditions." American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157) 2.1 (2024): 163-169.
 14. Ilhomovna, Djafarova Dildora, Bobokalonov Odilshoh Ostonovich, and Yaxshiboyeva Nodira Ergashovna. "Contemporary Usage of Archaic Phraseological Units Expressing "Historical Memory" In Uzbek and French Languages." American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education (2993-2769) 2.2 (2024): 371-377.
 15. Ilhomovna, Djafarova Dildora. "Phraseological Units Expressing "Memory"/" Mémoire" in Linguistics and their Analysis through Texts." Best Journal of Innovation in Science, Research and Development 2.11 (2023): 490-492.
 16. Яхшибоева, Нодира. "Таржима жараёнида маданиятлараро мулоқотнинг социолингвистик хусусиятлари." Академические исследования в современной науке 2.17 (2023): 165-169.
 17. Иногамова, Ф. М., and Н. Э. Яхшибоева. "Фразеологик маънонинг конвенциаллиги." Academic research in educational sciences 3.5 (2022): 1176-1182.
 18. Яхшибоева, Н. (2023). Туристический дискурс как один из особых видов институционального дискурса. International Bulletin of Applied Science and Technology, 3(6), 879-884.
 19. Яхшибоева, Нодира. "The role of tourism terminology in french." O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023,[1/4] (2023).